AGROBIZNESDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Sherova Nargiza Satimbayevna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
“Biznesni boshqarish (MBA-Agrobiznes)” mutaxassisligi 2-kurs magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17680599

Annotatsiya. *Ushbu maqolada agrobiznes faoliyatida innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bayon etilgan. Shuningdek, agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются направления эффективного использования инновационных методов финансирования в агропромышленной деятельности. Представлены выводы и предложения по эффективному использованию инновационных методов финансирования в агропромышленном комплексе.*

Abstract. *This article describes the directions of effective use of innovative financing methods in agribusiness activities. Also, conclusions and suggestions are presented on the effective use of innovative financing methods in agribusiness.*

Kalit so‘zlar. *Agrobiznes, moliyalashtirish, innovatsion moliyalashtirish, usul, kredit, fermer xo‘jaligi.*

Ключевые слова. *Агробизнес, финансирование, инновационное финансирование, метод, кредит, фермерское хозяйство.*

Key words. *Agribusiness, financing, innovative financing, method, credit, farm.*

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida agrobiznes sohasi barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, aholining o‘sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishda agrosektor alohida o‘rin tutadi. Agrobiznesning samarali faoliyat yuritishi uchun yetarli moliyaviy manbalar mavjud bo‘lishi talab etiladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda ushbu manbalar innovatsion moliyalashtirish usullari shaklida amalga oshiriladi. Ushbu usullar uchun an’anaviy bank kreditlaridan farq qiluvchi, zamonaviy texnologiya va bozor mexanizmlariga asoslangan, risklarni boshqarish va investitsiyalarni jalb etishning yangi vositalari xos bo‘ladi. Jahon amaliyotida ham innovatsion moliyalashtirish usullarining samarali qo‘llanilishi ko‘plab mamlakatlarda agrar sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Masalan, Niderlandiyada agro-biotexnologiya startaplarini venchur fondlar orqali qo‘llab-quvvatlash natijasida eksport hajmi keskin oshgan. Isroilda raqamli sug‘orish tizimlari venchur sarmoyalar hisobiga rivojlantirilib, suv tejamkorlik 40 foizga oshgan. Xitoyda kraudfanding orqali fermerlar organik mahsulot yetishtirish loyihalarini yo‘lga qo‘ygan. Shunday ekan, bugungi kunda agrobiznesni moliyalashtirishda kraudfanding, venchur kapitali, agro-sug‘urta, lizing, “yashil” moliya va davlat-xususiy sheriklik kabi usullardan samarali foydalaniladi. Bular bevosita agrobiznes faoliyatida innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘lib qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarga asosan, moliyalashtirish shakllari, manbalari va mexanizmlarining turli-tumanligi, o‘zgarib turishi, haqiqiy ehtiyoj, talab va taklif, moliyaviy tahlil, investitsion quyilmalar, iqtisodiy baholashning ko‘p sonli metodlari innovatsion moliyalashtirishga olib keladi [1]. Yana bir tadqiqotlar agrobiznes faoliyatining qishloq xo‘jaligida amalga oshirilib, bunda mablag‘lar innovatsiyalarga sarflanadi. Ya’ni, mamlakat qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar uchun sarflangan mablag‘larning qoplanish muddati uzoq muddatli bo‘lib, bu esa ahamiyatli darajadagi tavakkalchilikka ega bo‘ladi [2]. Boshqa tadqiqotlarda agrobizneslarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan varianti sifatida moliya institutlaridan kredit olish tadqiq qilinadi. Unga asosan, kreditlar turli maqsadlarda, masalan, yer sotib olish, asbob-uskunalar sotib olish yoki operatsiyalarni kengaytirish uchun qo‘llaniladi [3]. Ba’zi bir tadqiqotlarda esa agrobiznes ahamiyati, uning O‘zbekistondagi holati, xususiyatlari va rivojlanish imkoniyatlari batafsil tahlil qilinadi. Jumladan, bugungi kunda agrosanoat iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lganligi sababli agrosanoatning asosi sifatida agrobiznesda ishtirok etuvchi omillar va turlari ko‘rib chiqiladi. Unga asosan, agrobiznesni rivojlantirish turli innovatsion usullarga asoslanib, ularni moliyalashtirish zarurati mavjud bo‘ladi [4]. Yana boshqa tadqiqotlar esa agrobiznesda innovatsion komponentni moliyalashtirish masalalarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligi sektorining hozirgi rivojlanish holati ochib beriladi. Ya’ni, qishloq xo‘jaligi sektoridagi innovatsion jarayon xususiyatlari va qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatida innovatsiyalarning asosiy yo‘nalishlari taklif qilinadi [5]. Ushbu soha taraqqiyotida moliyalashtirish turli tamoyillarga asoslanadi va ba’zi bir tadqiqotlarda o‘z aksini topadi. Xususan, qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishda innovatsiyalar bugungi kunda dolzarb masala sifatida qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining o‘ziga xos faoliyat tamoyillari bilan bog‘liq bo‘ladi [6]. Bu holatda yetarli moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish uchun qishloq xo‘jaligi korxonalari bugungi kunda innovatsion texnika va usullardan samarali foydalanishlari kerak. Biroq, mahalliy investitsiyalar agrosanoat kompleksidagi ilg‘or loyihalarni amalga oshirish uchun tashqi resurslarni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish maqsadida agrar sohani isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, raqamli agroinfratuzilmani rivojlantirish jarayonida moliyaviy instrumentlarning yangi turlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash lozim. Bu holatda innovatsion moliyalashtirish moliyaviy resurslarni keng jalb etishning zamonaviy usullari sifatida ular yuqori samaradorlik, kam risk va texnologik yondashuvga tayanadi. Mazkur usullar agrosektorning investitsion jozibadorligini oshirishga, xususan, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda agrosektorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator moliyaviy dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan. tijorat banklari tomonidan agro-lizing xizmatlari kengaytirilmoqda. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘urta tizimi joriy etildi. Davlat tomonidan “yashil energiya” loyihalari uchun soliq imtiyozlari berilmoqda. Agro.uz va Agrobank digital kabi platformalar orqali raqamli moliyalashtirish instrumentlari joriy etilmoqda. Mamlakat agrobiznes faoliyatida innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanishga oid ayrim muammolar ham mavjud. Ularga moliyaviy savodxonlik pastligi, innovatsion loyihalarni baholash tizimining shakllanmaganligi va investitsiya muhitining hali to‘liq liberallashmaganligi kabi omillar

xos bo‘ladi. Bu holat bevosita agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan quyidagi yo‘nalishlarda samarali foydalanishga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval

Agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish usullari va qo‘llanilishi

№	Innovatsion moliyalashtirish usuli	Mohiyati	Agrobiznesda qo‘llanilishi
1	Kraudfanding	Jamoaviy mablag‘ to‘plash orqali loyihalarni moliyalashtirish usuli	Fermerlarning organik mahsulot yetishtirish, yangi teplitsa qurish yoki onlayn platformalar orqali mablag‘ yig‘ish
2	Venchur kapitali	Innovatsion va yuqori riskli loyihalarga sarmoya kiritish tizimi	Agro-biotexnologiya, raqamli agroservislar va suv tejamkor tizimlar kabi startaplarni moliyalashtirish
3	Agrolizing	Asbob-uskuna va texnikadan ijara asosida foydalanish imkoniyati	Fermerlar traktor, kombayn va sug‘orish tizimlarini lizing orqali oladi
4	Agrosug‘urta	Tabiiy ofatlar yoki hosil yo‘qotish risklaridan himoya tizimi	Hosilni sug‘urtalash, suv yetishmasligi yoki kasalliklardan zararni qoplash
5	“Yashil” moliyalashtirish	Ekologik barqaror loyihalarga sarmoya yo‘naltirish	Qayta tiklanuvchi energiya, suv tejamkor texnologiyalar va organik mahsulot yetishtirish
6	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali loyihalarni amalga oshirish	Agroinfratuzilma, logistika markazlari va qayta ishlash korxonalari qurilishi
7	Raqamli moliyalashtirish	Moliyaviy xizmatlarni raqamli platformalar orqali taqdim etish	Fermerlar onlayn kredit, sug‘urta va to‘lov xizmatlaridan foydalanish
8	Innovatsion grant va subsidiyalar	Ilmiy-tadqiqot va startaplar uchun davlat yordami	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va yangi agrotexnologiyalar yaratish

Mazkur 1-jadvalga asosan, innovatsion moliyalashtirish usullari agrobiznesda investitsiya manbalarini diversifikatsiya qiladi, kichik va o‘rta fermerlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni oshiradi, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi hamda ekologik barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Shularga asosan, agrolizing orqali traktor va texnika olish fermerning ishlab chiqarish samaradorligini 25-30 foizga oshirishi mumkin. “Yashil” moliya orqali esa amalga oshirilgan suv tejamkor tizimlar esa suv sarfini 40 foizga qisqartiradi.

Fikrimizcha, agrobiznesda innovatsion moliyalashtirishdan samarali foydalanish quyidagi strategik yo‘nalishlarga asoslanishi zarurdir:

- raqamli infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion moliyalashtirish jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshirilganda shaffoflik va samaradorlik ta’minlanadi.

- innovatsion investitsiya muhitini shakllantirish. Agrosektorda startaplar va innovatsion loyihalar uchun qulay muhit yaratish zarur. Buning uchun venchur fondlar, biznes inkubatorlar va akseleratorlarni tashkil etish lozim.

- davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish. Yirik agroinfratuzilma loyihalari, logistika va qayta ishlash korxonalarida ushbu sheriklik mexanizmlaridan foydalanish orqali davlat sarflarini kamaytirish va xususiy sarmoyani jalb qilish mumkin.

- ekologik va “yashil” moliyani rag‘batlantirish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejovchi texnologiyalar, organik yetishtirish tizimlariga soliq imtiyozlari berish va grant dasturlari orqali rag‘batlantirish lozim.

- moliyaviy savodxonlikni oshirish. Fermerlar va agrokorxonalar uchun moliya, sug‘urta, investitsiya va raqamli texnologiyalar bo‘yicha dasturlarini tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Xulosa. Agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va qishloq joylarda aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Shu bois, agrobiznesda innovatsion moliyalashtirish usullarini samarali qo‘llash iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Bu borada qishloq xo‘jaligi sohasini moliyalashtirishda faqat bank kreditlari bilan cheklanib qolmasdan, ya’ni yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish zarur. Shularga asosan, innovatsion moliyalashtirish usullarini joriy etish natijasida agrobiznes sub’ektlarining investitsiya imkoniyatlari kengayadi, ishlab chiqarish quvvatlari va eksport salohiyati oshadi, risklar kamayib, barqaror daromadlilik ta’minlanadi hamda ekologik barqaror rivojlanishga hissa qo‘shiladi. Bu borada agrobiznesda kraudfanding va venchur kapitalini qo‘llab-quvvatlash, agrosug‘urta va lizing tizimini raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta’minlash, davlat tomonidan “yashil” moliyalashtirishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlarni joriy etish, xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun soliq va grant siyosatini takomillashtirish va fermerlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xurozov Z.Q. Innovatsion moliyalashtirishning nazariy jihatlari. // Iqtisod va moliya, 2015, 11. - 31 b.
2. Xushmatov N.S., Rustamova I.B. Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yishning asosiy yo‘nalishlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №3, may-iyun, 2019. - 181 b.
3. https://diversedaily.com/exploring-financing-options-for-agribusiness-loans-grants-and-investments/
4. Boltayeva Sh.B., Jumayev T.G. Ways Of Financing Innovative Activities In Agrobusiness. // International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR), ISSN: 2643-900X, Vol.5, Issue2, February, 2021. - p. 138.
5. Aleksey V.Mikryukov, Anna I.Serebrennikova. Current trends in the financing of the innovative component in the agricultural sector. // E3S Web of Conferences 176, 05026, 2020. IDSISA, 2020. - pp. 1-8.

6. Калафатов Э.А., Kalafatov E.A. Инновации в финансировании сельскохозяйственных предприятий: путь к устойчивому развитию. // научный вестник: финансы, банки, инвестиции, 2024, №3. - с. 175.